

MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA GIGIYENA MADANIYATI VA U BILAN BOG'LIQ KASALLIKLAR: SO'ROVNOMA ASOSIDA TAHLIL

Andirbayeva G.S.

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti "Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat salomatligini saqlash" mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annatociya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi o'quvchilarda shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish darajasi, gigiyenik bilim va odatlar, shuningdek, gigiyena yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklar (enterobioz, stomatit, teri kasalliklari, nafas yo'li infeksiyalari) o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'rovnoma asosida 3 ta tumandagi 4–7 sinf o'quvchilarining bilim va odatlari o'rganildi. Tahlillar natijasida gigiyenik madaniyat darajasining sog'liq holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri mavjudligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Gigiyena, o'quvchilar, stomatit, enterobioz, shaxsiy tozalik, jamoat salomatligi, tahlil, parazitlar kasallik, JSST.

Jamoat salomatligini ta'minlashda aholi, ayniqsa bolalar orasida gigiyena madaniyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Maktab o'quvchilari — sog'liqni mustahkamlash va kasalliklarni oldini olishda asosiy guruhlardan biri hisoblanadi. Gigiyena qoidalariga amal qilmaslik o'quvchilarda enterobioz, tish va og'iz kasalliklari, teri muammolari va nafas yo'li infeksiyalari bilan bog'liq kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi [1].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlardagi bolalar kasalliklarining 60% ga yaqini noto'g'ri gigiyena, iflos suv va oziq-ovqat iste'moli bilan bog'liq [2]. O'zbekiston sharoitida bu ko'rsatkichlar viloyatlar va tumanlar bo'yicha farqlanadi.

Maktab yoshidagi bolalar orasida gigiyenik madaniyat qanday rivojlanganligini bilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi 2-sonli, Qo'ng'iro'tumanidagi 35-sonli va Nukus shahridagi 24-sonli umumta'lim maktablarida 4-7-sinf o'quvchilari orasida jami 300 o'quvchi (har maktabdan 100 o'quvchidan) anketa so'rovi o'tkazildi. So'rovnomada jami 10 ta savol bo'lib, bular;

- Qo'l yuvish chastotasi va sabablari;
- Og'iz gigiyenasi (tish yuvish, og'iz chayish);
- Dush qabul qilish odatlari;
- Oxirgi uch oyda kasallanish holati (stomatit, respirator infeksiya, qichishish, parazitlar kasallik);

So'rovnoma natijalari bo'yicha quyidagi ma'lumotda to'liq keltirib o'tilgan:

-O'quvchilarning 70% i faqat ovqatdan oldin qo'l yuvishini tan oldi, lekin darsdan keyin yoki ko'chadan kelgach har doim qo'l yuvmasligi aniqlandi.

-58% o'quvchi tishini har kuni 1 martadan yuvishini aytdi, 15% esa tish yuvmasligini tan oldi.

-Og'izda yallig'lanish yoki stomatitni o'tkazganlar — 41%.

-So'nggi 3 oy ichida enterobioz yoki qichishish alomatlari bo'lganlar — 28%.

-Qo'l yuvmaydiganlar orasida enterobioz bilan bog'liq alomatlar 3 barobar ko'p uchradi ($p < 0.05$).

Jadval 1. Gigiyena odatlari va kasalliklar o'rtasidagi bog'liqlik

Gigiyenik odat Kasallik holati (%) Eslatma

1	Har doim qo'l yuvadi	12%	Kasallik kam
2	Ba'zida yuvadi	24%	O'rtacha xavf
3	Umuman yuvmaydi	39%	Yuqori xavf

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilari orasida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish darajasi turlicha bo'lib, bu holat sog'liq holatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning aksariyati qo'l yuvish, tish tozalash, tirnoqlarni parvarish qilish, kiyim-kechak gigiyenasiga amal qilish kabi oddiy, ammo muhim odatlar bo'yicha yetarli ma'lumotga ega emasligi yoki ularga muntazam amal qilmasligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, gigiyenik odatlarni doimiy bajarmaslik holatlari o'quvchilar orasida tish kariyesi, teri kasalliklari, enterobioz (ichak parazitlari), nafas yo'llari infeksiyalari, oshqozon-ichak kasalliklari kabi yuqumli va parazitar kasalliklarning uchrash darajasini oshirmoqda. Ayniqsa, gigiyenik tarbiyaning past darajada bo'lishi bolalarning maktabdagi davomatiga, o'quv faolligiga, umumiy sog'lom rivojlanishiga salbiy ta'sir qilayotganligi kuzatildi.

Gigiyena madaniyatining shakllanishi – bu faqat oila yoki maktab zimmasidagi vazifa emas, balki sog'liqni saqlash, ta'lim va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlik asosida olib borilishi zarur bo'lgan ijtimoiy jarayondir. O'quvchilarda gigiyenaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun maktablarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yo'naltirilgan muntazam o'quv-didaktik mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar, plakatlar, gigiyena kunlari kabi tadbirlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda gigiyenik tarbiyani kuchaytirish, oilaviy gigiyena savodxonligini oshirish, profilaktik tibbiy ko'riklarni tizimli tashkil qilish orqali bolalar salomatligini mustahkamlash mumkin. O'quvchilar o'rtasida gigiyena madaniyatini oshirish orqali ularning sog'lig'i, hayot sifati va kelajakdagi ijtimoiy faolligi yuqori bo'lishi mumkin.

WHO va UNICEF tavsiyalariga ko'ra, maktablarda gigiyena madaniyatini shakllantirish uchun vizual materiallar, rolli o'yinlar, va ota-onalar bilan hamkorlikda gigiyena mashg'ulotlari o'tkazilishi kerak [3]. Shuningdek, sog'liqni saqlash xodimlari maktablarga chiqib gigiyenik nazoratni kuchaytirishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, gigiyena madaniyatining maktab o'quvchilari orasida shakllantirilish darajasi ularning sog'lig'iga, kasalliklar tarqalishiga va umuman olganda, sog'lom avlod tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda uzluksiz targ'ibot, amaliy gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pérez-Pico et al. (2022) — Differences in Hygiene Habits among Children Aged 8 to 11 Years by Type of Schooling. Children
2. Pasupleti va boshq. (2022) — Exploring Collaborative Game Play with Robots to Encourage Good Hand Hygiene Practises among Children.
3. Sasidharan va boshq. (2022) — Handwashing Action Detection System for an Autonomous Social Robot.
4. Khodzhiakhmatova (2025) — The Importance of Personal Hygiene in School-Age Children.
5. Assefa va Kumie (2024) — Personal hygiene practice and associated factors among elementary school students in Fiche Town, Oromia, Ethiopia. BMC
6. Bamlaku va boshq. (2024) — Factors associated with hygiene practices among primary school children in southern Ethiopia.
7. Agius va boshq. (2023) — Patterns in Oral Hygiene and Dietary Habits in School Children during the COVID-19 Pandemic.
8. Palavan (2023) — The Concept of Hygiene of Primary School Students in the Scope of Social Studies Teaching.
9. MDPI (2022) — Regional Disparities in Safe and Clean Environments in Uzbekistan.
10. PubMed (2023) — Personal hygiene, environmental conditions, and toilet use of children in primary schools: A cohort study.